



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
INNOVATSION
RIVOJLANISH VAZIRLIGI

БУХОРО ВИЛОЯТИНИ ИННОВАЦИОН РИВОЖЛАНТИРИШ: МУАММО ВА ЕЧИМЛАР

МАВЗУСИДА РЕСПУБЛИКА ИЛМИЙ - АМАЛИЙ АНЖУМАНИ МАТЕРИАЛЛАРИ



BUKHARA STATE UNIVERSITY

БУХОРО-2020

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ
ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ
ИННОВАЦИОН РИВОЖЛАНИШ ВАЗИРЛИГИ

БУХОРО ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

**“БУХОРО ВИЛОЯТИНИ ИННОВАЦИОН РИВОЖЛАНТИРИШ:
МУАММО ВА ЕЧИМЛАР”**

**МАВЗУСИДА РЕСПУБЛИКА
ИЛМИЙ - АМАЛИЙ АНЖУМАНИ
МАТЕРИАЛЛАРИ**

БУХОРО – 2020

ДАСТУРИЙ ҚЎМИТА

1. О.Х. Хамидов – Университет ректори, раис;
2. О.С. Қаҳҳоров – Илмий ишлар ва инновациялар бўйича проректор, раис муовини;
3. М.И. Даминов – Ўқув ишлари бўйича проректор, аъзо;
4. А.М. Кадиров – Ёшлар билан ишлаш бўйича проректор, аъзо;
5. С.Қ. Қаҳҳоров – Касаба уюшмаси қўмитаси раиси, аъзо;
6. Д.М. Жамолова – Бухоро тарихи кафедраси доценти, т.ф.ф.д, котиб;

ТАШКИЛИЙ ҚЎМИТА

1. О.С. Қаҳҳоров – Илмий ишлар ва инновациялар бўйича проректор, раис;
2. О.Х. Рахимов – Молия ва иқтисодиёт ишлари бўйича проректор, аъзо;
3. Г.Т. Зарипов – ИТ, И ва ИПКТБ бўлими бошлиғи, аъзо;
4. А.Х. Ҳамроев – БухДУ тузилмасидаги Қатағон қурбонлари хотираси музейи директори, аъзо;
5. А.А. Икромов – БухДУ ҳузуридаги илмий Кенгашларнинг мувофиқлаштирувчи илмий котиби
6. Ф.Ф. Қосимов – Ахборот технологиялари кафедраси ўқитувчиси, аъзо
7. Н.Н. Зарипов – Ахборот технологиялари кафедраси ўқитувчиси, аъзо
8. Ж.Ю. Эргашев – Жаҳон тарихи кафедраси ўқитувчиси, аъзо

Маъсул муҳаррир:

Б.Н. Наврўз-зода

иқтисодиёт фанлари доктори., профессор

Такризчилар:

А.Б. Низомов

иқтисодиёт фанлари доктори., профессор.

К.Б. Аҳмеджанов

иқтисодиёт фанлари доктори., профессор.

Масалаларнинг ҳолисона ёритилганлиги, келтирилган далил ва илмий муомалага киритилган маълумотлар ишончлилиги бўйича масъулият муаллифлар зиммасидадир. Мақолаларда илгари сурилган фикр-мулоҳазалар конференция таҳрир хайъатининг нуқтаи-назари билан ҳамоҳанг бўлмаслиги мумкин.

Бухоро давлат университети кенгашининг 28.01.2020й навбатдан ташқари йиғилишида кўриб чиқилиб, наирга тавсия этилган.

193.	Фармонов Ш. Назарий билим олишда инновацион технологияларини ўзига хос жиҳатлари	667
194.	Холиқулова Г.Э. Бухоро вилояти маданияти ва санъатини юксалтиришда замонавий кадрлар тайёрлаш ва инновацион ёндашувлар	671
195.	Халимова Д.Ж. Традиционная восточная народная медицина в новом свете развития образования	676
196.	Хамидова З.А. Iqtisodiyotni liberallashtirish sharoitida hunarmandchilik faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari	679
197.	Хамраева Ч. Что такое медиаобразование?	683
198.	Хамроева Ш. Инновацион технологияларни жорий этишда дастурий таъминотларнинг ўрни	685
199.	Ноjiyeva I. Kadrlar tayyorlash tizimining iqtisodiyot ehtiyojlariga moslashuvchanligini ta'minlash - innovatsion rivojlanishning asosiy omillaridan biri sifatida	690
200.	Худойбердиев П.У., Баймурзаева О.Ш. Тасвирий санъатга ихтисослашган махсус мактабларда ўқувчиларга машғулотларини ташкил этишда инновацион усуллардан фойдаланиш	693
201.	Худойбердиева Ж.Р. Мактабгача таълим тизимини ривожлантиришда инновацион педагогик фаолиятнинг аҳамияти	697
202.	Хушвақтов Х.А., Хайдаров Х.К., Тошпулатов Й.Ш. Инқирозга учраган ерларда фойдали ва доривор ўсимликларни етиштириш ҳамда фойдаланишда инновацион ёндашувнинг афзалликлари	699
203.	Ҳайруллаева С. Биринчи босқич талабаларни инновацион технолгиялар орқали назарий билимларини ошириш долзарб педагогик муаммо сифатида	702
204.	Наqberdiyeva Z.R. Maktabga tayyorlov guruhlarida bolalarni kitobga jalb qilishning innovatsion usullari	705
205.	Ҳамроева Н. Таълим тизимида бадий адабиёт намуналари билан таништиришда инновацион технологиялардан фойдаланиш	708
206.	Чорпева Д.А. Мактабгача таълим ташкилотларини салоҳиятини ошириш борасида амалга оширилаётган чора-тадбирлар	711
207.	Шарипова М.Б. Мактабгача таълим тизимида инновацион технологияларни кўллашнинг маърифий аҳамияти	713
208.	Ширинбаева Д. Жисмоний маданият дарсларини ўқитишда малака сифатини оширишнинг инновацион муаммолари	715
209.	Эргашев С. Специальная скорость тэквондиста как совершенство сенсомоторно иновационных качеств	718
210.	Эргашева Ю.А., Муртазова С.Б. Бухоро мусиқий меросини ўрганишда инновацион ёндашув	720

IQTISODIYOTNI LIBERALLASHTIRISH SHAROITIDA HUNARMANDCHILIK FAOLIYATINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Xamidova Zulfiya Ahmadjonovna
Doktorant(PhD), TDIU Toshkent

Bugungi globallashtirish va yuksak texnologiyalar asrida hunarmandchilikka shunchaki o'tmish yodgorligi sifatida bepisand qaramay, uning tarixiy asoslarini o'rganish, davlat va jamiyat tomonidan keng qo'llab-quvvatlash dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Buni e'tiborda tutib, mamlakatimizda milliy hunarmandchilik, xalq badiiy va amaliy san'atini rivojlantirish, bu orqali xalqimizning boy madaniy merosi va tarixiy an'analarini to'liq saqlab qolish, band bo'lmagan aholini, ayniqsa yoshlar, ayollar va kam ta'minlangan oilalarni hunarmandchilikka keng jalb etish orqali ularning ish bilan bandligini ta'minlash maqsadida ko'plab islohotlar amalga oshirilmoqda, shuningdek, mustaqillik yillarida bu sohaning rivojlanishini qo'llab-quvvatlash maqsadida bir-qator me'yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilindi.



1-chizma. Hunarmandchilik faoliyatini rivojlantirishning normativ-huquqiy asoslari[1]

Suningdek, 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan vazifalarni ijro etish, biznes hamjamiyati va davlat organlari o'rtasida samarali muloqot va sog'lom sherikchilik

mexanizmlarini yo'lga qo'yish, xususiy mulkchilik va tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini ishonchli muhofaza qilish kafolatlarini kuchaytirish, tadbirkorlar bilan biznes-muhitni takomillashtirish masalalari bo'yicha dolzarb axborot almashinuvining doimiy kanalini, avvalo viloyatlar, shaharlar va tumanlarda joriy etish, tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning amaliy natijalariga erishish, o'zining biznesini tashkil etish va yuritishda aholiga har tomonlama ko'mak berish, shuningdek, tadbirkorlik subyektlariga sifatli davlat xizmatlari ko'rsatishni ta'minlash alohida maqsad qilib belgilangan.

Hunarmandchilik – bu ijodiy va badiiy-milliy yondashuv, an'anaviylik kabi o'ziga xos belgi va xususiyatlariga ega, yakka tartibda yoki kichik jamoa asosida tashkil etiluvchi, yuqori texnologik hamda ommaviy sanoatlashgan ishlab chiqarish tavsifiga ega bo'lmagan moddiy ne'mat ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatish ko'rinishidagi yaratuvchanlik faoliyati hisoblanib²³, ushbu faoliyatni rivojlantirish yo'lidagi mavjud muammo va to'siqlarni tizimli bartaraf etish, O'zbekiston xalqlarining boy madaniy merosi va tarixiy an'analarini to'liq saqlab qolish va yanada boyitish, hunarmandchilikni keng miqyosda qo'llab-quvvatlash hamda hunarmandchilik bilan shug'ullanishga aholini, ayniqsa, yoshlar, ayollar va kam ta'minlangan oilalarni jalb qilishga rag'batlantirish maqsadida so'nggi yillarda bir qator qonuniy hujjatlar qabul qilinganligi alohida ahamiyat kasb etadi. Jumladan, 2017-yilning 17-noyabrida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining **“Hunarmandchilikni yanada rivojlantirish va hunarmandlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida”**gi PF-5242-sonli farmoni hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 28 noyabrdagi **“Hunarmandchilikni yanada rivojlantirish va hunarmandlarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”** gi PQ-4539-son qarori shular jumlasidandir.

2017 yilda qabul qilingan farmonga binoan “Hunarmand” uyushmasi saflariga hunarmandlarning keng ommasini qamrab olish, shuningdek, hunarmandchilikni kichik biznes va yakka tadbirkorlik rivojlanishining kuchli mustaqil yo'nalishga aylanishiga yo'l bermayotgan hamda uyushmaning cheklangan salohiyati bilan bog'liq muammolarni hal qilish bo'yicha bir qator chora-tadbirlar belgilangan.

²³ Muallif ta'rifi.

1-Jadval. HUNARMANDCHILIK SUBYEKTLARIGA YARATILGAN SHART-SHAROITLAR[2]			
Hunarmandlar qat'iy belgilangan soliq va sug'urta badallari bo'yicha imtiyozlar	Imtiyozli valyuta rejimi	Imtiyozli kreditlar	Soddalashtirilgan tartibda xususiy lashtirish va davlat mulkini ijaraga olish
Hunarmandchilik faoliyati mahsulotlari (tovar, ish, xizmatlar) ni ishlab chiqarish va sotishda qat'iy belgilangan soliq to'lovidan to'liq ozod etildi.	Hunarmandlarga o'z mahsulotlarini eksport qilishdan tushgan xorijiy valyutani erkin tasarruf etish, shu jumladan, bank hisob raqamlaridan chet el valyutasini naqd shaklda yechib olish huquqi berildi.	"Mikrokreditbank" ATB, "Xalq banki" ATB va "Agrobank" ATB hunarmandlarga 6 oy imtiyozli davrni o'z ichiga olgan holda 2 yil muddatga, EKIH(eng kam ish haqqi)ning 300 baravarigacha miqdorda milliy valyutada imtiyozli mikrokreditlar beriladi. O'zlarining ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun asbob-uskuna va ehtiyot qismlar xarid qilishda imtiyozli mikrokreditlar bo'yicha stavka Markaziy bank qayta moliyalashtirish stavkasining 50%ini, aylamma mablag'larni to'ldirish uchun esa ushbu stavkaning 100%ini tashkil etadi.	Hunarmand xususiy lashtirish dasturi doirasida ("nol" xarid qiymatida) sotiladigan davlat mulki obyektini olish xohishini bildirgan taqdirda, ushbu obyekt hunarmandga baholangan qiymatida (boshlang'ich investitsiya majburiyatlari bilan) ochiq savdolarga (tanlovga) qo'yilmasdan to'g'ridan-to'g'ri shartnoma asosida sotiladi (beriladi). Bir necha hunarmand bir obyektini ("nol" xarid qiymatida) olish istagini bildirgan taqdirda, ushbu obyekt belgilangan tartibda ochiq savdoga (tanlovga) qo'yiladi va unda faqat ushbu hunarmandlar ishtirok etadi. Bunda ushbu obyektlardan kamida 5 yil mobaynida hunarmandchilik mahsulotlari ishlab chiqarish sohasida foydalanilishi lozim.
Yoshga doir pensiya va nafaqa oluvchilar byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga sug'urta badali to'lovidan ozod etildi.			
Qishloq tumanlarida ro'yxatdan o'tgan va faoliyatini amalga oshirayotgan hunarmandlar o'z faoliyatining dastlabki ikki yili mobaynida byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga belgilangan sug'urta badalining 50 foizini to'laydi. Hunarmandlar kasb-hunar kollejarining maxsus ustaxonalarida hunarmandchilik bo'yicha ta'lim berish huquqiga ega bo'lishdi. Ular bilan yakka tartibdagi tadbirkorlar kabi shartnoma tuziladi va ko'rsatilgan xizmat uchun soliq undirilmaydi.			
"Usta-shogird" maktabi o'quvchisi sifatidagi ish davri 25 yoshga yetgunga qadar EKIHning kamida 2,5 baravari miqdorida sug'urta badali to'langan taqdirda mehnat stajiga qo'shiladi.			
Doimiy savdo joylariga ega bo'lmagan va vaqtinchalik joylarda savdo qiluvchi hunarmandlar kassa apparatlari va savdo terminalaridan foydalanadi, shuningdek, naqd pul tushumini ixtiyoriy tartibda inkassatsiya qiladi.	Xorijiy mamlakatlarda o'tkazilgan ko'rgazma, tanlov, yarmarka davomida sotilgan hunarmandchilik mahsulotlari eksport shartnomalari tuzilmasdan amalga oshirilishi mumkin, buning natijasida olingan daromad esa eksport tushumi hisoblanmaydi.	Imtiyozli mikrokreditlar pul mablag'larini hunarmandning ssuda hisob raqamidan uning to'lov topshiriqnomasiga muvofiq, tegishli tashkilot yoki jismoniy shaxsning talabi bo'yicha depozit hisob raqamiga o'tkazish yo'li bilan keyinchalik ushbu tashkilot yoki jismoniy shaxsga xizmat ko'rsatuvchi bank tarif siyosatiga muvofiq, naqd pul olish imkoniyati bilan taqdim etiladi.	Hunarmandlarga davlat mulki obyektlari uchun ijara to'lovi belgilangan eng kam to'lovning 50%i miqdorida belgilandi.

Bizga ma'lumki, yuqorida ta'kidlanganidek, hunarmandchilikning rivoj topishi boshqa iqtisodiy faoliyat turlari kabi, xususan tadbirkorlik faoliyatining bir tarkibi sifatida, mamlakatimizda ish bilan bandlikni, daromadlar manbaini hamda aholi turmush darajasini oshirishga xizmat qilish bilan birga avlodga an'ana sifatida o'tib kelayotgan hunarmandchilik yo'nalishlarini nafaqat respublikamizda, balki jahon miqyosida boy ma'daniy va ma'naviy me'rosimizning yorqin namunalarini sifatida targ'ibot qilishga, shu orqali bugungi kunda dolzarb soha sifatida isloh qilinayotgan turizm imkoniyatlarini taraqqiy etishiga xizmat qiladi.

Ushbu sohani yanada rivojlantirish maqsadida qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 28 noyabrdagi "Hunarmandchilikni yanada rivojlantirish va hunarmandlarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi PQ-4539-son qarorida nazarda tutilgan chora-tadbirlarni tom ma'noda hunarmandchilikni rivojlantirish bo'yicha innovatsion yondashuv desak, adashmagan bo'lamiz.

<p>O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 28 noyabrdagi “Hunarmandchilikni yanada rivojlantirish va hunarmandlarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha qo‘shimcha choratadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4539-sonli qarori hunarmandchilikni rivojlanishida yana bir tarixiy hujjat bo‘ldi.</p>	<p>Respublika hududlari (38ta tuman (shahar)lar) hunarmandchilik faoliyatining asosiy yo‘nalishlari bo‘yicha ixtisoslashtirildi va ularga O‘zbekiston Respublikasining xorijdagi diplomatik vakolatxonalarini birlashtirildi</p>
	<p>Xalq amaliy san‘ati ustalarining Milliy katalogi tashkil etiladi va 2020 yil 1 yanvardan boshlab Milliy katalog ochiq va umum foydalaniladigan veb-sayt ko‘rinishida ishga tushiriladi</p>
	<p>Xalq amaliy san‘ati ustalarining milliy katalogiga kiritiladigan nomzodlarni tanlash bo‘yicha “Hunarmand” uyushmasi raisi rahbarligida O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi, Badiiy akademiyasi rahbarlari va mas’ul xodimlaridan iborat bo‘lgan Kengash tuziladi</p>
	<p>Milliy katalogga kiritilgan hunarmandlarga shogirdlar soni bo‘yicha cheklovlar ham bekor qilinadi</p>
	<p>O‘zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasi “Hunarmand” uyushmasi bilan birgalikda turizm sohasida faoliyat yuritayotgan hunarmandlar reestrini joriy etishi belgilandi.</p>
	<p>Xalq banki, “Mikrokreditbank” va “Agrobank” manbalar hisobidan “Hunarmand” uyushmasi a‘zolariga ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun asbob-uskuna, ehtiyot qismlar va xomashyo materiallarini xarid qilish, hunarmandchilikni rivojlantirish markazlari, “usta-shogird” maktablari tashkil etish, uy-muzey va ustaxonalar qurish yoki shu maqsadlarda bino va inshootlar sotib olish, aylanma mablag‘larini to‘ldirish uchun O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining qayta moliyalash stavkasidan oshmaganda holda 18 oy muddatga, bazaviy hisoblash miqdorining 250 baravaridan oshmaganda kreditlar ajratishi belgilanganligini aytib o‘tdi.</p>
	<p>2020/2021 o‘quv yilidan boshlab hunarmandchilikka ixtisoslashgan hududlarda hunarmandchilik va xalq amaliy san‘ati yo‘nalishlari bo‘yicha bolalar musiqa va san‘at maktablari, “Barkamol avlod” bolalar markazlari hamda Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi tizimidagi kasb-hunarga o‘qitish markazlarida o‘quv kurslari tashkil etiladi.</p>
<p>Qarorda ikki oy muddatda yirik savdo majmualari va dehqon bozorlari hududlarida alohida “hunarmandlar rastalari”ni tashkil etilishi belgilandi. “Hunarmand” uyushmasiga a‘zo bo‘lgan hunarmandlar doimiy ravishda “hunarmandlar rastalari”ga joylashtirib boriladi. Shu bilan birga 2020 yil yakuniga qadar tashabbuskorlarni jalb qilgan holda Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri tuman va shaharlarida milliy hunarmandchilikning barcha yo‘nalishlarini o‘zida mujassam etadigan zamonaviy “hunarmandlar bozori” tashkil etiladi.</p>	
<p>Qarorda hunarmandlarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash maqsadida “Suzuk ota” majmuasi misolida ixtisoslashtirilgan hunarmandchilik majmualarini tashkil etish choralari ko‘rish belgilangan.</p>	
<p>Shu bilan birgalikda xujjatda O‘zbekiston Badiiy akademiyasi, O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi, Davlat aktivlarini boshqarish agentligi va “Hunarmand” uyushmasi bilan birgalikda Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlar markazlarida hamda Toshkent shahrida xalq amaliy san‘ati va hunarmandchilik mahsulotlari ko‘rgazma zalari va galereyalarini tashkil etishi belgilangan.</p>	
<p>Respublikada hunarmandchilik sohasining rivojlanishini baholash uchun tegishli indikatorlarni Davlat statistika qo‘mitasi, Savdo-sanoat palatasi va “Hunarmand” uyushmasi bilan birgalikda ishlab chiqadi va ularning 2020 yildan boshlab har chorakda ommaviy axborot vositalarida chop etib boriladi.</p>	

2-chizma. Hunarmandchilik faoliyati doirasida amalga oshirishi kutilayotgan islohotlar[3].

Ta’kidlash kerakki, o‘tgan davr mobaynida olib borilgan keng targ‘ibot va tashviqot ishlari natijasida “Hunarmand” uyushmasidan ro‘yxatdan o‘tgan hunarmandlar soni 2,5 barobarga oshib, 2019 yil 1 dekabr holatiga ularning soni 28 300 nafarni, shogirdlar soni 53500 nafarni tashkil etganligiva 405,1 mlrd so‘mlik, 12 402 ta loyihalar banklar tomonidan moliyalashtirildi. 46 400 ta yangi ish o‘rinlari yaratildi. 2018-2019 yillarda respublika bo‘yicha 18 mln AQSh dollari miqdorida hunarmandchilik mahsulotlari eksporti amalga oshirildi [4].

Shuningdek, Prezidentimizning sohaga oid qabul qilingan farmoni, huquqiy hujjatlari bilan hunarmandlarga yaratib berilgan imtiyozlar natijasida, O‘zbekiston Respublikasi “Hunarmand” uyushmasi “World Craft Council (Jahon hunarmandlar Kengashi)ning a‘zosi bo‘ldi. Ushbu tashkilot 1964 yilda Belgiyada nodavlat-notijorat tashkilot sifatida tashkil etilgan va boy madaniy merosni asrab-avaylash va rivojlantirish uchun seminarlar, konferensiyalar va ko‘rgazmalar o‘tkazish orqali butun dunyoda hunarmandchilik tashkilotlarini qo‘llab-quvvatlaydi.

“Hunarmand” uyushmasi bilan WCC tashkiloti o‘rtasida olib borilgan muzokaralar natijasida (WCC-APR) prezidenti Gada Kaddumi mamlakatimiz rahbariyati tomonidan o‘zbek milliy hunarmandchiligini rivojlantirishga qaratilayotgan ulkan e‘tiborni yuqori baholadi hamda o‘zbek hunarmandchilik maktablari, an‘analari, qadriyatlarini va avloddan avlodga o‘tib

kelayotgan usta-shogird maktablariga katta qiziqish uyg'otganligini bildirdi. WCCga a'zo bo'lish o'zbek hunarmandlarining xalqaro hamkorlikni rivojlantirish uchun, shuningdek, ularning xorijdagi ko'rgazmalarini tashkil etish hamda milliy hunarmandchilik mahsulotlari savdosini uchun keng imkoniyatlar yaratadi.[5]

Xulosa o'rinda ta'kidlash joizki, olib borilayotgan keng ko'lamli islohotlar bugungi kunda hunarmandchilikning rivoj topishi boshqa iqtisodiy faoliyat turlari kabi, xususan tadbirkorlik faoliyatining bir tarkibi sifatida, mamlakatimizda ish bilan bandlikni, daromadlar manbaini hamda aholi turmush darajasini oshiririshga xizmat qilish bilan birga avloddan avlodga an'ana sifatida o'tib kelayotgan hunarmandchilik yo'nalishlarini nafaqat respublikamizda, balki jahon miqyosida boy ma'daniy va ma'naviy me'rosimizning yorqin namunalari sifatida targ'ibot qilishga, shu orqali bugungi kunda dolzarb soha sifatida isloh qilinayotgan turizim imkoniyatlarini taraqqiy etishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. www.lex.uz.
2. 2017-yilning 17-noyabrida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Hunarmandchilikni yanada rivojlantirish va hunarmandlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5242-sonli farmoni. www.lex.uz.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 28 noyabrdagi "Hunarmandchilikni yanada rivojlantirish va hunarmandlarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi PQ-4539-son qarori. www.lex.uz.
4. <http://www.chamber.uz/uzk/news/5394>.
5. <http://xs.uz/uz/post/hunarmand-uyushmasi-zhahon-hunarmandlar-kengashining-azosi-boldi>.

ЧТО ТАКОЕ МЕДИАОБРАЗОВАНИЕ?.

**ТДПУ Шахрисабз филиали матбуот котиби
Чарос Хамраева**

Наступивший XXI век уже в конце прошлого столетия стал называться "эпохой информации", т.к. в XX веке роль информации непрерывно возрастала и приобретала важнейшее значение в развитии общества, в прогрессе экономики, науки, техники и культуры. Однако XXI век называют не просто "эпохой информации", а, более того - "веком глобального информационного общества". В таком обществе образование, знания, информация и коммуникация составляют основу развития и благополучия человеческой личности. В современном обществе человек находится под воздействием непрерывных потоков информации, в том числе передаваемой по каналам масс-медиа. Поэтому для современного человека очевидна необходимость навыков восприятия информации, умения верно понимать значения аудиовизуальных образов, и, как следствие, более